

PAST INTENSIV LAZER NURINING HAYVOINLAR ORGANIZMIDA KECHADIGAN HAZM JARAYONLARIGA TA'SIRI

Axrоров Маруф Насимжонович

Assistant, Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Usarov Azamat Asatullayevich

Dotsent, Toshkent kimyo xalqaro universiteti

Abdusattorov Eldorbek Sardor o'g'li

SamDTU Akademik litsey talabasi

Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya. Tog' va tog'oldi yaylovlarida urchitilayotgan ona qo'y va echkilardan o'rtacha 50%:50% nisbatda urg'ochi va erkak qo'zi, uloqlar olinadi. Lekin keyingi yillarda naslchilik ishlarini o'z holiga tashlab qo'yilishi hisobiga jahon qorako'l teri auksionlarida O'zbekistonda yetishtiriladigan terilar orasida raqobatbardosh teri navlarining keskin kamayib borayotganligi, ayniqsa sifatli qorako'l teri olish uchun so'yilishi mumkin bo'lgan qo'zilar soni kamayib, so'yilganida ham terisi sotilmay qoladigan holatlar kuzatilmoqda. Intevisiv texnologiyarini yaratilish sohaning rivojida sezilarli darjada ta'sirini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: vodorod, kavsh qaytarish, tug'ilgan, qo'shimcha, ozuqa, ishtaha, sirka, hazm, propion, yog', faol.

ВЛИЯНИЕ НИЗКОИНТЕНСИВНОГО ЛАЗЕРНОГО ИЗЛУЧЕНИЯ НА ПИЩЕВАРИТЕЛЬНЫЕ ПРОЦЕССЫ В ОРГАНИЗМЕ ЖИВОТНЫХ

Ахроров Маруф Насимжонович

Ассистент, СамГМУ

Усаров Азамат Асатуллаевич

Доцент, Ташкентский международный химический университет

Абдусатторов Эльдорбек Сардорovich

Студент Академического лицея САМГУ

Самарканд, Узбекистан

Аннотация. В среднем, 50%:50% ягнят и козлят женского и мужского пола получают от овец и коз, разводимых на горных и предгорных пастбищах. Однако в последние годы, из-за прекращения селекционной работы, резко сократилось количество конкурентоспособных сортов кожи среди шкур, выращиваемых в Узбекистане на мировых аукционах каракульских шкур, особенно уменьшилось количество ягнят, которых можно забить для получения высококачественных каракульских шкур, и даже после забоя шкуры не продаются. Создание интенсивных технологий оказывает значительное влияние на развитие отрасли.

Ключевые слова: водород, жвачка, рождение, добавка, корм, аппетит, уксус, пищеварение, пропионовая кислота, жир, активный.

THE EFFECT OF LOW-INTENSITY LASER RADIATION ON DIGESTIVE PROCESSES IN ANIMALS

Akhrorov Maruf Nasimzhanovich

Assistant, Samarkand State Medical University

Usarov Azamat Asatullayevich

Dotsent, Tashkent International University of Chemistry

Abdusattorov Eldorbek Sardorovich

Student, Academic Lyceum, Samarkand State Medical University

Samarkand, Uzbekistan

Annotation. On average, 50%:50% of male and female lambs and kids are obtained from sheep and goats raised on mountain and foothill pastures. However, in recent years, due to the cessation of breeding efforts, the number of competitive leather varieties among the skins raised in Uzbekistan for global Karakul skin auctions has sharply decreased. The number of lambs that can be slaughtered to produce high-quality Karakul skins has particularly decreased, and even after slaughter, the skins are not sold. The development of intensive

technologies has had a significant impact on the development of the industry.

Key words: hydrogen, chewing gum, birth, supplement, feed, appetite, vinegar, digestion, propionic acid, fat, active.

Kirish. O'zbekiston sharoitida sutdan ajratilgan qo'zilar organizmida noqulay ozuqaviy va iqlimiy omillar ta'sirida, qator stresslar natijasida qo'zilar tomonidan yaylov ozuqalarini iste'mol qilinishi, tarkibidagi moddalarni hazm bo'lishi va o'zlashtirilishi kabi jarayonlarga lazer nurining ta'sirini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmagan[1,2].

Qo'zilarni sog'lom, hayotchanligini saqlab qolish bilan birga ularning mahsuldorligini oshirish, bozorni ekologik jihatdan toza, yuqori sifatli raqobatbardosh qo'zi go'shti bilan boyitish muammosi hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida eng dolzarb yo'nalishlardan biriga aylanib ulgurdi[3,4].

Usullar. Qo'chqorchalarda kavsh qaytarish jarayoni odatda kechki oziqlanish tamomlanganidan keyin 30-36 daqiqa o'tgach boshlandi, bir kechada 4-6 marta kavsh qaytarish jarayoni kuzatildi va ularning har biri o'rtacha 22-25 daqiqa davom etdi. So'ngra 35-65 daqiqa davom etuvchi tinchlik davridan keyin yana kavsh qaytarish jarayoni boshlandi. Tajribalarni kuzatish natijalariga ko'ra kavsh qaytarish jarayonlari tajriba guruhi qo'chqorchalarida nazorat guruhidagiga nisbatan 8-12% ga ortiq davom etishi aniqlandi. [5,6].

Natijalar. Solishtirilayotgan har ikkala guruhlar qo'chqorchalari katta qornida 5 daqiqa davomida 6-8 marta ruminatsiya qayd qilindi. Ruminatsiya sindromi qayta ishlanmagan yoki hazm bo'lmagan ovqatni olib kelishiga, uni yana chaynashiga va keyin ovqatni yutib yuborishiga yoki tupurishiga olib keladi. Katta qorin suyuqligidagi vodorod ionlarining konsentratsiyasi ma'lum darajada hayvonlarning ishtahasiga, ya'ni ozuqalarning iste'mol qilinishiga o'zining ta'sirini ko'rsatishi aniqlangan[109; 42-49-b.].

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, lazer nurining ta'siri natijasida kavsh qaytarish jarayonini ortishi so'lak ajratilishini ko'payishiga, katta qorinda hazm

bo'lish jarayonni yaxshilashiga imkoniyat yaratadi deb hisoblaymiz. Shu boisdan har ikkala guruhlarda natijalar bir-birlaridan farq qildi va bu jarayon katta qorin suyuqligi mikroorganizmlarini faoliyati uchun qulaylik tug'dirdi deb hisoblaymiz.

Ratsion tarkibining faqat dag'al oзуqalardan iborat bo'lishi katta qorinda pH ning darajasini oshishini ta'minlash bilan birga so'lak ajralishini kuchaytiradi. Bu esa o'z navbatida katta qorinning qo'shimcha ravishdagi buferlik himoyasini ta'minlaydi. Kislotalilikning bunday ko'rsatkichi so'lak bilan tushayotgan bikarbonatlarni va natriy fosfatining tushishi hisobiga yaratiladi. Katta qorindan kislotalarning evakuatsiyalanishi natijasida ximus bilan ichakka o'tishi va qonga so'rilishi hamda katta qorin suyuqligining buferlik xususiyatlari bilan ta'minlanadi. Bundan tashqari, katta qorin suyuqligining muhiti neytralga yaqin bo'lganida (pH 6,4-6,8), undagi mikrofloraning rivojlanishi uchun juda qulay sharoit yaratiladi[7,8].

Tajriba guruhi qo'chqorchalari katta qornida hosil bo'lgan UYoK miqdori va undagi sirka kislotasining ulushi nazorat guruhiga nisbatan 12,73% ga va 5,1% ga yuqori ekanligi aniqlandi. Nazorat guruhida hosil bo'lgan UYoK fraksiyalari me'yor darajasida bo'lishi kuzatilgan bo'lsa, tajriba guruhi qo'chqorчалarida propion kislotasining ulushini ortishi moy kislotasining ulushini kamayishi hisobiga yuz berdi, bu esa bizning nazarimizda moy kislotasining ulushini kamayishi ularni to'qimalar tarkibida joylashgan va hayvonlar tirik massasining ortishini ta'minlovchi yog'lar sifatida sarflangan bo'lishi mumkin. pH ko'rsatkichi bo'yicha nazorat guruhida 6.51% bo'lsa tajriba guruhida 6.78%, Uchuvchi yog' kislotalar nazorat guruhida 9.82 mMol/ml, tajriba guruhida 11,07 mMol/ml, Sirka nazorat guruhida 64.5% bo'lsa tajriba guruhida 67.8%, Propion nazorat guruhida 23.6% bo'lsa tajriba guruhida 29.9%, Moy nazorat guruhida 11.7% bo'lsa tajriba guruhida 7.77% ni tashkil qildi[9].

Список использованной литературы

1. Раджамуродов З.Т., Ахоров М.Н. Влияние низкоинтенсивного лазерного излучения на организм животных// Известия КарГУ. Научно-теоретический, методический журнал. 2024 (1)1. 186-192 с.
2. Ахоров М.Н. Применение биофизических методов в животноводстве. Золотой мозг. Узбекистан. Том 1. Выпуск 27. 2023. С. 97-102. ISSN 2181-4120.
3. Раджамуродов З.Т., Ахоров М.Н. Методы повышения продуктивности рогатых жвачных животных в мае. ВЕСТНИК Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан. 2023 г. № 4 (273) с. 9-13.
4. Ахоров М.Н. Влияние кратковременного низкоинтенсивного лазерного облучения на мясную продуктивность молодняка ягнят// Научный вестник НамГУ. Выпуск 5, 2022. С. 65-70.
5. Раджамуродов З.Т., Ахоров М.Н. Методы и критерии повышения продуктивности мелкорогих жвачных животных. Мыслитель. Узбекистан. № 1. 1.04.2022. С. 153-158. ISSN 2181-3310.
6. Раджамуродов З.Т., Джалилов М.Х., Ахоров М.Н., Джалилов Х.М. Влияние лазерных лучей мощностью до 10 Вт/см² на иммунную систему животных. Американский журнал сельскохозяйственной и биомедицинской инженерии. США. 12 ноября 2021. С.1-5. ISSN 2689-1018.
7. Ахоров М.Н. Влияние биофизических методов на процесс пищеварения у лямблий. Центральноеазиатский журнал медицинских и естественных наук. Казахстан. Том 2. Ноябрь-декабрь 2021 г. С. 452-455. ISSN 2660-4159.
8. Раджамуродов З.Т., Джалилов М.Х., Ахоров М.Н. Возможность повышения естественной резистентности организма каракульских ленов биофизическими методами. Американский журнал сельского хозяйства и биомедицинской инженерии. Том 3. Март 2021. С. 12-16. ISSN 2689-1018.

9. Раджамуродов З.Т., Ахроров М.Н. Влияние кратковременного низкоинтенсивного лазерного излучения на мышечные реакции молодых ягнят. Журнал стрессовой физиологии и биохимии РАН. Т. 19, № 2, 2023, С. 5-10. ISSN 1997-0838.